

**MAKTABGACHA, UMUMIY O'RTA,
PROFESSIONAL VA OLIY TA'LIM
TIZIMLARIDA JISMONIY TARBIYA
TA'LIMINING UZVIYLIGINI
TA'MINLASH**

K O N S E P S I Y A S I

Toshkent – 2020

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimida Jismoniy tarbiya fanini o'qitishni rivojlantirish konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasining 2035 yilgacha rivojlanish Strategiyasining konsepsiyasi va 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi PF-5368-sonli "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2019 yil 4 sentabr kuni o'tkazilgan videosektor yig'ilishi asosida 2019-2023 yillarda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyasi, O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarga muvofiq hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

2. Konsepsiya maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida Jismoniy tarbiya ta'limni rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini belgilab beradi, jumladan:

-rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ta'lim sohasida me'yorlarni belgilash tajribasidan milliy xususiyatlarni va mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni hisobga olgan holda takomillashtirish;

-jismoniy tarbiya fani davlat ta'lim standarti talablarining ta'lim sifatini oshirish, kadrlar tayyorlashga qo'yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta'minlash;

-jismoniy tarbiya ta'lim bo'yicha maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini uzviylikini ta'minlash hamda amaliyotga tatbiq etish;

- Xotin-qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilish, rivojlantirish va turli xil sog'lomlashtiruvchi sport tadbirlarini muntazam ravishda o'tkazib borish;

- jismoniy tarbiya fan dasturlari va darsliklarning mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoni tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etadi;

-jismoniy tarbiya ta'limini tashkil etishning zamonaviy shakl, metod va vositalari asosida dual tizimli o'quv modullarini ishlab chiqish;

-ta'lim jarayoniga milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bitiruvchilarni tarbiyalashning samarali metodikasini keng joriy etish;

-jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish;

-o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini va natijaviylikini ta'minlashda innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish;

jismoniy tarbiya ta'limning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, byudjet va byudjetdan tashqari mablag' bilan ta'minlashning samaradorligini oshirish;

-jismoniy tarbiya fani dasturida jismoniy tarbiya sohasidagi maxsus bilimlarni o'rgatish, o'quvchilar va talabalar orqali aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va targ'ib qilish;

-jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish, sog'lom turmush tarzi hamda reproduktiv salomatlikka doir amaliy ko'nikma va malakalarni shakillantirish, o'rgatish va takomillashtirish;

-jismoniy madaniyat, sport to'garaklari va ommaviy sport tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish;

-jismoniy tarbiya fanini o'zlashtirishning muhim kutilayotgan natijalari axloqiy ong va xulq-atvor, irodaviy sifatlar, mehnatsevarlik, Vatanga sadoqat, o'z-o'zini tarbiyalash jismoniy sifatlarni hamda estetik va ruhiy emotsional hissiyotlarni rivojlantirish;

-jismoniy tarbiya o'quv fani uchun elektron uslubiy, multimedia resurslar bazasini yaratish;

- fan bo'yicha davlat ta'lim standartlarida ko'zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etishni ta'minlaydi.

2. Jismoniy tarbiya fanini o'qitishning joriy holati va mavjud muammolar

3. Hozirgi vaqtda "Jismoniy tarbiya" fanining amaldagi joriy holati va to'plangan tajribalar tahlilidan quyidagilar ma'lum bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo'lidan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda tashkilotlar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta'kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so'z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan "Raqamli O'zbekiston – 2030" dasturini ishlab chiqish va joriy etish vaziflari belgilandi. Bu esa ta'lim tizimini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali texnoparklar, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada keng imkoniyatlar yaratadi. Ishlab chiqarish jarayonlari yuqori darajada sanoatlashgan Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, AQSH, Isroil, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy Xalq Respublikasi va boshqa rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida ham biologik ta'lim ishlab chiqarishning asosiy bo'g'ini hisoblanib, jahon mehnat bozoriga malakali mutaxassislar tayyorlashning muhim bosqichlari va tashkil etuvchilaridan biri deb qaraladi.

O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim muassasalarining "Jismoniy tarbiya" fani Davlat ta'lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta'lim mazmuni bajarish, o'quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta'lim mazmunini va o'qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini o'tkazishda mavjud muammolar:

Maktabgacha ta'lim:

Jismoniy tarbiya yo'riqchilari uchun metodik ko'llanmalarning yo'qligi, ularni yaratilishi hamda ulardan tajriba-sinov tarzida foydalanishni yo'lga qo'yilmaganligi;

Ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarida alohida sport zalining yo'qligi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya yo'riqchisining ish soatining kamligi;

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya va sport jihozlarining yetarli emasligi;

Ayrim maktabgacha ta'lim tashkilotlarining hovlisida tadbirlarni o'tkazish uchun sport maydonchasining yo'qligi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida

O'quvchilarning, jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligi holati bo'yicha monitoring nazoratini olib borish uchun zamonaviy texnologiyalarga asoslangan o'quv-uslubiy majmualarni yaratish ishlari amalga oshirilmagan;

Xalq ta'limi sohasida umumiy o'rta ta'lim maktablarida Jismoniy tarbiya o'qituvchilari uchun o'quv axborot resurslarini rivojlantirish hamda "Jismoniy tarbiya tizimi"dagi milliy an'analar va eng yaxshi muvaffaqiyatli dunyo amaliyoti bo'yicha o'quv loyihalari, dasturlari va modullarining yagona milliy elektron kutubxonasini (ma'lumotlar bazasini) yaratish ishlarga e'tibor qaratilmagan;

Xalq ta'limi tizimida umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining o'quv va darsdan tashqari shakllarini o'tkazish uchun havfsizlik choralari yetarlicha ta'minlangan;

ta'lim ishtirokchilari (o'quvchilar) munosabatlari talablariga muvofiq sport zallarining zamonaviy jihozlari va inventarlari bilan jihozlanishi talab darajasida emas.

yoshlarni jismoniy tarbiya va sportga keng jalb qilish va ular orasidan iqtidorli sportchi o'quvchilarni saralab olish, sport turlari bo'yicha yuqori natijalarni ta'minlaydigan mahoratli sportchi o'quvchilar bilan milliy terma jamoalarni shakllantirish va o'quvchilarni o'z ustida muntazam ishlashlari uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish zarurati mavjud

jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasiga zamonaviy axborot texnologiyalarini va multimedia mahsulotlarini joriy etishga yetarli darajada e'tibor berilmayapti;

Jismoniy tarbiya fanida o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olib, amaliy faoliyatiga yetarlicha vaqt ajratilmayotganligi, o'quvchilarning individual ijodiy va jismoniy rivojlanishini susaytirmoqda;

Jismonan, ruhan sog'lom, baquvvat, ephil va chaqqon bo'lishlari hamda ijodiy erkinlikni ta'minlash maqsadida o'quvchi va amaliyotchi o'qituvchilar DTS asosida ko'rgazmali qurollar, sport plakatalari hamda tarkatma materiallar, metodik ko'llanmalar, uslubiy ko'llanmalarni yo'qligi, ularni yaratilishi hamda ulardan tajriba-sinov tarzida foydalanishni yo'lga qo'yilmaganligi;

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida jismoniy tarbiya darslarining yillik yuklamasi 68 soatdan 34 soatga qisqartirilganligi;

Mazkur fanda o'qitiladigan mavzular sinflar bo'yicha tahlil qilinganda o'quvchilar uchun hech qanday ko'rgazmali qurollar mavjudmasligi'

mavjud darsliklar bugungi kunda foydalanib kelinayotgan o'quv dasturga to'g'ri kelmasligi hamda ko'plab mavzular fanlar va mavzulararo integrallashtirilmaganligi;

Oliy ta'lim tizimida

Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida mutaxassis pedagog-kadrlarni tayyorlash sifati bugungi kun talablariga qisman mos kelmasligi, jismoniy tarbiya faniga taalluqli umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish metodikasini tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos ravishda yangilashni taqazo etmoqda.

-Jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ilmiy-metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi;

-Jismoniy madaniyat ta'limning moddiy-texnika bazasini eskirganligi, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlanmaganligi hamda byudjetdan mablag' bilan ta'minlash bo'yicha yetarli choralar ko'rish yuzasidan takliflar ishlab chiqilmaganligi;

-“Jismoniy tarbiya”ni o'ziga hos xususiyatlarini inobatga olgan holda ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladigan xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv-moddiy bazalar va o'quv moddiy ta'minotni barpo etilmaganligi;

-xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan Jismoniy madaniyat ta'limi o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichma-bosqich o'tishda beparvoliklarga yo'l qo'yilayotganligi;

-pedagog-kadrlarning sifati bugungi kun talablariga to'liq javob bera olmayotganligi, ularni o'qitishni va malakasini oshirish jarayonini tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos kadrlarni tayyorlash lozimligi;

-jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishi bo'yicha talabalikka sport bilan shug'ullangan, sport razryadiga ega bo'lgan sportchilarni qabul qilish;

-DTS, o'quv va ishchi o'quv fan dasturlarining davr talabiga ko'ra takomillashuvidan kelib chiqib o'quv adabiyotlarini yaratish va yaratigan adabiyotlarni chop etish shu kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

3-bob. Jismoniy tarbiya ta'lim Konsepsiyasining asosiy maqsadi va rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari.

Mamlkatimizda jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlariga va hozirgi davrda rivojlanishining istiqbolli vazifalariga muvofiq, maktabgacha, umumiy o'rta ta'lim, professional oliy ta'lim sohasida jismoniy tarbiya tizimini zamonaviylashtirish (*modernizatsiya qilish*) asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim-tarbiya va sog'lomlashtirish salohiyatini oshirish, “Jismoniy tarbiya” fanini o'qitishning yuqori sifatini ta'minlash uchun sharoit yaratish, shuningdek. ushbu fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish mazkur Konsepsiyaning asosiy maqsadidir.

Konsepsiyaning asosiy vazifalari esa:

o'quv va darsdan tashqari mashg'ulotlar, shuningdek qo'shimcha ta'limning o'zaro bog'liqlik asosida fan mazmunini va o'qitish metodikasini ta'lim usullari va texnologiyalarini hisobga olgan holda zamonaviylashtirish;

fanning o'quv-uslubiy ta'minlanishi va moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish;

o'quvchi va talabalarning jismoniy rivojlanishi va jismoniy tayyorgarligiga oid shaxsiy ko'rsatkichlarini rivojlanishga yordam beradigan bazaviy ko'nikma va malakalarini egallashlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, jismoniy tarbiya ta'limi doirasida va undan tashqari faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni o'zlashtirish;

shaxsning ma'naviy va jismoniy barkamol rivojlanishiga qaratilgan milliy urf-odat va qadriyatlar orqali, vatanparvarlik va insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;

o'quvchi va talabalarda jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanishga bo'lgan qiziqish(motiv)larni uyg'otish;

o'quvchi yoshlar va pedogog xodimlar faoliyatida o'quv dasturdagi vazifalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar, axborot resurslari ma'lumotlar bazasini kengaytirish;

jismoniy tarbiya sohasida kadrlar salohiyatini oshirish;

jismoniy tarbiya va ommoviy sportni hamda sog'lom turmush tarzini tashkil qilish shakllantirish va ommalashtirish boyicha innovasiyon chora- tadbirlarini ishlab chiqish va ammalga oshirish

Seleksiya yoli bilan iqtidorli sportchilarni tanlash, o'qituvchi murabbiylar faoliyatini qollab quvatlash chora- tadbirlarini qo'llab quvatlash va kuchaytirish.

“Jismoniy tarbiya ” fanining maqsadi:

-bitiruvchilarda texnik obyekt hamda Jismoniy tarbiya ta'lim jarayon davomida olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish, mehnat bozorida zarur bo'ladigan kompetensiyalarni shakllantirish;

-Vatanga bo'lgan mehr tuyg'ularini yanada oshirish, ularning nostandart vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olishi, fikrlash va dunyoqarashlarini kengaytirish va ma'naviy hamda jismonan barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish;

-“Jismoniy tarbiya” fanini o'qitishning yuqori sifatini ta'minlash uchun sharoit yaratish, shuningdek ushbu fanni o'qitish metodikasini takomillashtirish.

5.Jismoniy tarbiya ta'limni rivojlantirish quyidagi vazifalarga asosan amalga oshiriladi:

-ta'limning belgilangan bosqichlarida izchil ta'limni o'qitish tizimini yaratish;

-jismoniy tarbiya ta'limining ilmiy-metodik ta'minotini boyitish;

-jismoniy tarbiya ta'lim tizimining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash, zamonaviy o'qitish vositalari va texnologiyalar bilan ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

-jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmasini shakllantirish;

- o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'qitilayotgan jismoniy tarbiya ta'lim jarayonini o'zaro uzviyligini ta'minlash;

-kadrlarni tayyorlash, mavjud kadrlar ta'minotini modernizatsiyalash va inson potentsialidan samarali foydalanish;

- malaka talablarini, shuningdek yangilangan ta'lim standartlarini joriy etish uchun egallanadigan ko'nikmalarni aniqlashning yangi usullarini joriy etish;
- ta'limning barcha bosqichlarida fan bo'yicha olimpiadani tashkil etish Nizomini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish;
- iqtidorli sportchi talabalarni aniqlash va talaba-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish maqsadida sport turlari bo'yicha musobaqalar va tanlovlarini tashkil etish;
- zamonaviy standartlarga mos keluvchi jismoniy tarbiya fanining turli yo'nalishlarni tadqiq qilish va joriy etish;
- talabalarda loyihalash va tadqiqot ishlari madaniyatini shakllantirish;
- ta'limning ilg'or amaliyotini ommalashtirish va ta'limda o'qitish shakllarini takomillashtirish;
- fanning o'quv-uslubiy va moddiy-texnik ta'minotini takomillashtirish;
- talabalarlarning jismoniy tayyorgarligiga oid shaxsiy ko'rsatkichlarini rivojlanishga yordam beradigan bazaviy ko'nikma va qobiliyatlarni egallashlari uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, jismoniy tarbiya ta'limi doirasida va undan tashqari faoliyatlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompetensiyalarni o'zlashtirish;
- shaxsninig ma'naviy va jismoniy barkamol rivojlanishiga qaratilgan qadriyatlarni tarbiyalash, vatanparvarlik va insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;
- talabalarda jismoniy mashqlar bilan tizimli shug'ullanishga asos(motiv)larni va ehtiyojlarni shakllantirish;
- talabalar va pedogog xodimlar faoliyatida o'quv dasturlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan texnologik vositalar, axborot resurslari, ma'lumotlar bazasini kengaytirish;
- jismoniy tarbiya sohasida kadrlar salohiyatini rivojlantirish;
- talabalarda jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarziga oid ko'nikmalarni shakllantirishga qiziqish motivatsiyasini oshirish.

4-bob. Jismoniy tarbiya ta'limning o'quv-metodik ta'minotini ishlab chiqishda uzviylikni ta'minlash.

6. Jismoniy tarbiya ta'limning o'quv-metodik ta'minotini rivojlantirish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:
- ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an'analar uyg'unligida jismoniy tarbiya ta'limi bo'yicha davlat ta'lim standartini ishlab chiqish;
 - jismoniy tarbiya ta'limi bo'yicha uzviylikni e'tiborga olgan holda ta'lim bosqichlari uchun alohida tartibda bitiruvchilarga qo'yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;
 - jismoniy tarbiya ta'lim tizimi o'quv yuklamalarining minimal hajmi hamda ularning taqsimoti yuzasidan takliflar tayyorlash;
 - jismoniy tarbiya ta'lim tizimi bo'yicha o'quv-metodik majmualarni (darslik, o'quv va uslubiy qo'llanma, o'qituvchi uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovasi va boshqa) yangi avlodini bosqichma-bosqich ishlab chiqish;

-jismoniy tarbiya ta'lim tizimi mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetentsiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

-xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiyena talablarini ishlab chiqish.

7. Jismoniy tarbiya ta'lim bo'yicha o'quv-metodik majmualarni ishlab chiqish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshiriladi:

-o'quv-metodik majmualar ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy prinsiplari asosida yaratilganligi;

-talaba-yoshlarning aqliy va jismoniy imkoniyatlari, yoshi, psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi, qiziqishlari, layoqatlari hisobga olinganligi;

-talaba-yoshlarda vatanparvarlik va milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;

-talaba-yoshlarda mustaqil ijodiy fikrlash, tashkilotchilik qobiliyati va amaliy tajriba ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

8. O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

a) didaktik talablar:

-o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

-matnlar axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

-qiziqarli, tushunarli va hamma uchun qulay va tabaqalashtirilgan bo'lishi;

-ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

-ta'limning kundalik hayot va amaliyot o'rtasidagi bog'liqligini ta'minlashga, olingan bilimlarni amaliyotda qo'llay olish layoqatlari shakllantirilishiga, boshqa o'quv fanlari bilan uzviy bog'liqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi;

-rasmlar ko'rinishidagi chizmalar, sxemalar, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

-yangi tushunchalar, atamalar, qoidalar, formulalar, ta'riflar va shu kabilar lug'at ko'rinishida ifodalangan bo'lishi lozim.

b) ilmiy-metodik talablar:

-fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi;

-o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

-o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

-mantiqiy ketma-ketlikka va izchillikka amal qilinishi;

-milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mintalitetiga zid bo'lmagan tegishli ma'lumotlar bilan boyitilishi;

-savol va topshiriqlar aniq ifodalangan bo'lishi;

-kasbga yo'naltirishga oid matnlar va rasmlar, izohli lug'at, texnik ijodkorlik va mantiqiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan loyihalash hamda modellashtirish yuzasidan topshiriqlarni qamrab olgan bo'lishi lozim.

v) pedagogik-psixologik talablar:

-keng jamoatchilik tomonidan tan olingan ilmiy asoslangan ma'lumotlar, talabalarning bilim darajalari, eslab qolish qobiliyatlari, tafakkuri hisobga olingan holda biologik voqea va hodisalarning mohiyatini anglashga hamda amaliy

qiziqishlarini rivojlantirishga, bilim olishga va amaliy faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlarini to'laqonli qondirishga yo'naltirilgan bo'lishi;

-o'quv fani mavzularining talabalarning yosh xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

-talabalarning yangiliklarni qabul qilish qobiliyatlari, oldin olgan bilimlarini o'zlashtirganlik darajasi hisobga olingan bo'lishi lozim.

g) estetik talablar:

-imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

-matnlar talaba-yoshlarga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

-bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibli ta'minlanishi;

-rasm va tasvirlar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

d) gigiyenik talablar:

-matn va rasmlar sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga mos bo'lishi;

-harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffofligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

5-bob. Jismoniy ta'lim tizimining moddiy-texnik ta'minotini mustahkamlash

9. Jismoniy ta'lim moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-Jismoniy tarbiya-sport obyektlari infratuzilmalaridan foydalanish bo'yicha havfsizlik qoidalari, uni sertifikatlash talablarini, ta'lim muassasalari faoliyatida o'quv fani bo'yicha foydalaniladigan sport asbob-uskunalar va jihozlari havfsiligi talablarini belgilab beruvchi standartlarni ishlab chiqish;

-ta'lim muassasalaridagi sport infratuzilmalari uchun sanitariya-epidemiologik normalarini va talablarini yangilanishini ta'minlash;

-ta'lim muassasalaridagi sport infratuzilmasi obyektlarini va sport jihozlari va asbob-uskunalarining texnik darajasi va havfsizligini baholash uchun Jismoniy tarbiya va sport vazirligi huzurida davlat va xususiy shariklik asosida sinov laboratoriyasini tashkil etish.

-ta'lim muassasalaridagi zamonaviy sport zallari va inshootlarini sport anjomlari va asbob-uskunalar bilan jihozlash uchun namunaviy ro'yxati va tavsiflarini yangilash;

-ta'lim muassasalari, sport maydonchalari va dam olish, sport turizmi maskanlarining yagona elektron ma'lumotlar bazasini yaratish.

-o'quv amaliy va laboratoriya xonalarini zamonaviy mebel, jihozlar, asbob-uskuna va moslamalar, o'quv-uslubiy materiallar, laboratoriya jihozlari, kompyuter, interaktiv doska, planshet hamda multimedia texnikalari, internet, videokuzatuv

tizimlari, masofaviy o'qitish jihozlari, 3D printer bilan ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralarini ko'rish;

-o'quv laboratoriya xonalari, maxsus fanlarni o'qitish uchun, ilmiy tadqiqot va laboratoriya tajribalarini o'tkazish obektlarni yaratish va jihozlanish

ilmiy tadqiqot va laboratoriya tajribalarini o'tkazish obektlarni yaratish jihozlanish darajasini xalqaro standartlarga javob beradigan o'quv uskunalari bilan ta'minlash;

-masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimini keng joriy etish, talabalarning oliy ta'lim muassasasida o'qishni tamomlaganlaridan so'ng kutubxona fondi, axborot bazalaridan foydalanishini yo'lga qo'yish orqali ularning kasbiy malakasini uzluksiz oshirib borish imkoniyatlarini kengaytirish;

-kutubxona, o'quv laboratoriyalar infratuzilma obyektlariga nisbatan o'sib borayotgan ehtiyojni o'z vaqtida ta'minlash va zamon talablari asosida ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash;

-innovatsion kutubxonalarni tashkil etish, ulardagi kitob fondini yangi avlod o'quv adabiyotlari bilan muntazam boyitish;

-oliy ta'lim muassasalarini yuqori tezlikdagi internet bilan uzluksiz ta'minlash, talabalarning mustaqil ta'lim olishi uchun infratuzilma imkoniyatlarini kengaytirish;

-talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarning elektron ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

6-bob. "Jismoniy tarbiya" ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish orqali innovatsion infratuzilmani shakllantirish.

10. Jismoniy tarbiya ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaviy usullarni joriy etish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;

-ta'lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirish;

-"Jismoniy tarbiya" fani bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalariga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (innovatsion darslik, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari, QR-kod orqali adabiyotlardagi rasmlarning 5D modellarni kurish imkoni) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

-O'quvchilarni qo'shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shakllarida xabardor qilib turish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

-zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

-nazariy hamda amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi

platformalardan (Edu Market interfaol-virtual ta'lim dasturi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

-Masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga "Jismoniy tarbiya" fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualarni, elektron ta'lim resurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

-"Jismoniy tarbiya" fanidan o'qituvchilar uchun amaliy topshiriqlarni bajarishga mo'ljallangan uslubiy qo'llanmalar, elektron darslik va elektron videonamoyishlar to'plamini yangi dastur asosida takomillashtirish;

-sport musobaqalarning bosqichma-bosqich o'tkazib iqtidorli sportchi talabalarni tanlash (seleksiya) ishlarini olib borish.

-Iqtidorli sportchi talabalarni "Ustoz-shogird" tizimi asosida tegishli sohada yuqori natijalarga erishgan malakali mutaxassislariga biriktirish;

7-bob. Kadrlarni tayyorlash va inson potentsialidan samarali foydalanish

11. Kadrlarni tayyorlash va inson potentsialidan samarali foydalanish bo'yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

-Jismoniy tarbiya ta'limning mazmun va metodlarini takomillashtirish uchun ta'lim Jismoniy tarbiya bo'yicha ishlab chiqilayotgan o'quv me'yoriy hujjatlar hamda zamonaviy ta'lim texnologiyalari va resurslarini, masofadan o'qitish texnologiyasini qo'llash va fanning rivojlanish haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishni inobatga olgan holda, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash qo'shimcha kasbiy ma'lumot berishni talab qiladi.

Bu jarayon quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi:

-Jismoniy tarbiya ta'lim yo'nalishi bakalavriat darajasi uchun ta'lim dasturlarini maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlari davlat ta'lim standarti va o'quv dasturidan kelib chiqqan holda tubdan yangilash va uzviylikini ta'minlash;

-Jismoniy tarbiya ta'lim doirasida o'quv fanlaridan dars beruvchi o'qituvchilarni masofadan va aralash usulda integratsiyalashgan malakasini oshirish hamda qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

-Tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda jismoniy tarbiya ta'lim sohasida tajribaga ega kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yo'lga qo'yish;

-jismoniy tarbiya ta'lim sohasida tajribali o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash, o'qituvchi mehnatini to'g'ri baholash tizimini yaratish;

-tegishli lavozim, kasb va mutaxassislik bo'yicha kvalifikatsiya ma'lumotnomalarida ko'rsatilgan malaka talablarini hisobga olgan holda ta'lim sohasida zamonaviy bilimlar bilan tanish, zamonaviy laboratoriya jixozlari bilan ishlash va loyiha ishlari tajribasiga ega shaxslarni kasbiy qayta tayyorlash;

-"Ustoz-shogird maktabi"ni tashkil etish va rivojlantirish.

8-bob. Konsepsiyani amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar

12. Konsepsiya doirasida belgilangan vazifalarni bajarish orqali quyidagi ko'rsatkichlarga erishish nazarda tutiladi:

Oliy ta'lim tizimida.

Jismoniy tarbiya ta'lim tizimida o'qitishning konseptual asoslari sifatida shuni qayd etish joizki, jismoniy ta'limni zamonaviy talablar asosida o'rganish:

– dunyoqarash bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi; gumanitar va tabiiy –ilmiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;

– tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, tabiat va jamiyat shu bilan birga jismoniy tarbiya fanlarning rivojlanishi, sport turlari bo'yicha (o'yin qoidalari, maydon va jihoz o'lchamlari va o'tkazilayotgan musobaqalar) haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

– insonning boshqa insonga, jamiyatga, atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy va ma'naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga olib bilishi;

– axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bilishi o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- elektron axborot ta'lim muhitida ta'lim jarayonini pedagogik loyihalashtirish;

– tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

– kasbiy-pedagogik madaniyati shakllangan bo'lishi;

– yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

– bitta xorijiy tilni erkin so'zlashuv darajasida egallagan bo'lishi;

– sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tasavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish *ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.*

Umumta'lim tizimida

Konsepsiyani amalga oshirish mexanizmi quyidagi asosiy chora-tadbirlarni nazarda tutadi:

ta'lim-tarbiya, targ'ibot va tashviqot ishlarini mamlakatimizdagi keng qamrovli islohotlar talablari darajasiga ko'tarish;

jismoniy tarbiya fanini o'qitish bo'yicha o'qituvchilarning kasbiy mahorat va shaxsiy fazilatlari, pedagogik madaniyatini oshirish, o'quvchilarda badiiy-estetik, ma'naviy-axloqiy tarbiya, jismoniy komillika intilish sifatlarini tarkib toptirishni barchaning vazifasiga aylantirish;

o'quv-tarbiya jarayonini jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodikasi asosida muntazam takomillashtirib borish;

o'quv-tarbiya mazmunini real hayot, yoshlarning qiziqishlari, qobiliyatlari bilan bog'lash, ta'lim va tarbiyaning ilg'or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, o'quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish hamda rag'batlantirish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish;

ijodiy va sport tadbirlarini tashkil etish bo'yicha davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari, xususiy sektorning muntazam hamkorligini yo'lga qo'yish;

ota-onalar, jamoatchilikning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan davlat dasturlari va o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5 ta muhim tashabbus yo'nalishlari bilan uyg'unlikda olib borish;

ijodiy va sport tadbirlari bo'yicha ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi chellenjlar, qo'shiqlar, madaniy-ma'rifiy yo'nalishlarda videoroliklar, bukletlarni yaratish;

mazkur fanlarni o'qitishdagi muammolarni bartaraf etish, o'qitishni takomillashtirish masalalarini hal qilish maqsadida mamlakatimiz hamda xorijiy davlatlarning yetakchi olimlarini taklif etgan holda respublika va xalqaro konferensiyalar, forum-seminarlar o'tkazish;

o'quv-tarbiya jarayonining muntazam ilmiy-pedagogik monitoringini olib borish va bunda ilg'or texnologiyalaridan samarali foydalanish;

ota-onalar, pedagoglar, bolalar, yoshlar uchun jismoniy tarbiya va sportga oid to'g'ri ovqatlanish, sport sog'lik garovi, sog'lom turmush tarziga amal qilaylik kabi rasmlar bilan bezatilgan yorqin, rang-barang plakatlar, ko'rgazmali qurollar, turli xil uslubiy qo'llanmalar, multimedia mahsulotlar kabi didaktik materiallar turkumini yaratish.

YAKUNIY QOIDALAR

Jismoniy tarbiya fani bo'yicha ishlab chiqiladigan me'yoriy hujjatlar mazkur konsepsiyada belgilangan qoidalarga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Konsepsiyani amaliyotga joriy etish ta'lim sohasidagi xalqaro tashkilotlar, vazirlik va idoralar, muassasalar, davlat hamda nodavlat korxonalar va tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik bilan o'zaro kelishilgan holda amalga oshiriladi.